

SHIMOLIY AFG'ONISTON HUDUDIDAGI SARIPUL VILOYATINING O'ZBEK TILIDAGI TOPONIMLARI

Emadi NesarAhmad

TerDU, O'zbek tili va adabiyot ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

Email: nesarahmademadi@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15404956>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shimoliy Afg'onistonning Saripul viloyatini o'zbek tilida qo'llanadigan toponimlari tahlil qilinib, ushbu hududda yashovchi aholisini azaldan buyonga atalib keluvchi joy nomlari kelibchiqishi o'rganildi.

Kalit so'zlar: Toponim, onomastika, etnografiya, tilshunoslik, geografik.

Abstract. This article analyzes the toponyms used in the Uzbek language of the Saripul region of Afghanistan and studies the origin of the place names that have been used to refer to the people living in this region since ancient times.

Key words: Toponymy, onomastics, ethnography, linguistics, geography.

Аннотация. В статье анализируются топонимы, используемые в узбекском языке региона Сарыпুল Афганистана, а также изучается происхождение топонимов, которые использовались для обозначения народов, проживающих в этом регионе с древних времен.

Ключевые слова: Топонимика, ономастика, этнография, языкознание, география.

Toponim har bir hududdagi ishlatilib keluvchi joy nomlari bo'lib, bu xalq uchun belgi sifatida atalib kelmoqda. Toponimika fani tilshunoslik etnografiya, geografiya, geologiya va tarix, fanlarining tutashgan nuqtasida paydo bo'lgan va ular bilan chambarchas aloqada bo'lib rivojlanadi. Onomastika fani yangi bo'lishiga qaramay ko'pgina mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda o'z o'rnini va mavqeyini topishga qodir bo'lgan. Tilshunoslikning eng muhim bo'lgan sohalaridan biri bu toponimlardir. Toponimlar geografik hududiy joylashgan joy nomlarini qaysi turiga tegishli bo'lishini tasdiqlovchi soha bo'lib, Afg'oniston Saripul hududlarida o'zbek tiliga ataluvchi toponimlarni o'rganishdir. Afg'onistonning Saripul viloyatidagi o'zbek tilida ataluvchi toponimlarni kelibchiqishini o'rganib chiqish, va ularni nima maqsadda ataluvchi nomi bilan atalishi, turkiy xalqlarning yashash ta'siri va bu sohada qanday joy nomlarini borligini o'rganish maqsadidir. Mazkur joy nomlarini o'rganib, ularni to'plangan variantini ilmiy shaklda jamlab, tilshunoslikning bu sohasini rivojlantishi vazifasidir. Shunday ekan biz hozir quyidagi toponimlarni ko'rishimiz mumkin.

Ungut (ونگوت): Ungut, Angut, Angud, Ongud, UvUngut, Ungqut, Ungqud, Ungxud, Ungxut, Ingqud: Ungut qishlog'i Afg'onistonning SariPul viloyatini markaziga qarashli qishloqlardan biri bo'lib, mamlakatdagi neftga boy hududlardan sanaladi. Aholisini asosan o'zbeklar va arablar tashkil etadi. Bu qishloq Qara daryo (Qora daryo) nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Ungutning neft hududi Amudaryo neft mintaqasiga kiradi. Ungutlarning ildizi qadimiy Turk Hunliklari, Hunlar va Hiyongnu (Hyung-nu) davrlariga borib taqaladi. Ungut qishlog'i SariPul viloyati markazidan janubga taxminan besh kilometr masofada joylashgan bo'lib, viloyatning eng neftga boy joylaridan biridir. Bu yerda asosan o'zbeklar istiqomat qiladi. Bu hudud serhosil va yam-yashil bo'lib, aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi.

Qishloq "Qora daryo" nomi bilan ham tanilgan. Bu yer Amudaryo neft hududiga kiradi. Rasmiy va norasmiy hujjatlarda bu yer ko'proq "Angut" (alif ochiq talaffuzda) shaklida yozilgan bo'lsa-da, mahalliy aholi "Ungut" deb talaffuz qiladi, bu esa to'g'ri shaklidir. Ungut nomli joylar Eronning turli qismlarida ham mavjud. Turkiyada ham Ungut nomli kichik bir shahar bor. Xuddi shunday, Krimiya orolida (Ukraina tarkibidagi) va Rossiyada ham Ungut nomli shaharlar mavjud. O'zbekistonda va Mo'g'ulistonda ham Ungut deb ataluvchi joylar topiladi.

O'zbeklar bilan bog'liqligi tarixiy manbalarga ko'ra, Ungutlarning dastlabki guruhleri Chingizxon bilan birgalikda Xorazmga yurishda ishtirok etgan va u yerda joylashib qolgan.

So'ngra ular Movarounnahr va Turkistonga tarqalganlar. Shubhasiz, Ungut qo'shinlari tarkibida ham nasroniylar, ham musulmonlar bo'lgan, biroq Turkistonga joylashgan Ungutlar asosan musulmon edilar. Arg'unlar Ungutlarning bir bo'lagi bo'lib, ular davlat idoralarida va savdoda faol bo'lganlar. Jo'ji xon davrida Xorazm hokimlaridan biri Jontemur bo'lib, u Ungutlar jumlasidan bo'lgan mo'g'ul qo'shinlarini boshqargan. Saripuldagi Ungutga qaytsak Ungut Saripul viloyatining janubida joylashgan qishloqlardan biridir. Aholi og'zaki nutqida bu nom "Ungut" deb talaffuz qilinadi, biroq ommaviy axborot vositalarida "Angut" shaklida yoziladi bu esa noto'g'ri. Afg'oniston Qishloqlar Atlasi Saripulda to'rtta "Angut" nomli qishloqni qayd etgan bo'lib, ular aslida bir qishloqning qismlari bo'lishi mumkin: Angut O'zbekiya, Angut Arab, Angut Afg'aniya va Angut Higzak. Ehtimol, bu to'rt bo'lim aynan hozirgi Ungutga tegishli. Atlasda ularning barchasi SariPul shahrining sharqida joylashgan deyilgan, holbuki haqiqiy Ungut janubda joylashgan. Saripul viloyati ta'lim boshqarmasi rahbari Abdul G'afur Ungutiya ko'ra, mahalliy aholida Ungut nomi "un" yoki "o'zbek uniga" aloqador deb hisoblashadi. Ungut ikki kichik daryo Oq daryo va Qara daryo bilan sug'oriladi. Oq daryo toza va tiniq suvlari bilan tanilgan, faqat ko'paygan suv mavsumlarida biroz loyqalanadi. Qara daryo esa ko'p hollarda loyqa bo'ladi, shuning uchun bu nom bilan tanilgan¹.

Oq Daryo: (آق دریا) Saripul viloyatida joylashgan mashhur daryo bo'lib, u aslida janubiy-g'arbiy tog'lardan boshlanadi va tog'li hududlardagi yashil vodiylarni sug'oradi. Tilshunoslik va madaniy ta'sir nuqtayi nazaridan tahlili Afg'onistonning shimoliy hududlari, jumladan, SariPul viloyati turkiy tilli etnik guruhlar xususan o'zbeklar va turkmanlar tomonidan qadimdan yashab kelingan hududlardandir. Toponimika (joy nomlari ilmi) nuqtayi nazaridan qaralganda, "Oq Daryo" nomi aynan turkiy tillarga mansub aholining til va madaniy ta'siri natijasida shakllangan bo'lgan. Chunki "oq" so'zi turkiy tillarda "oq rangli", "yorug'", "pok" ma'nolarida ishlatiladi, va bu atama fors-tojik tilida ko'p uchramaydi. "Daryo" esa umumiy turkiy va fors tillarida "katta suv oqimi" yoki "suv havzasi" ma'nosini bildiradi. Semantik (ma'no) jihatdan "oq" so'zining ramziy yuklamasi jihatidan Turkiy xalqlarning an'anaviy madaniyatida "oq" rangi ko'pincha poklik, muqaddaslik, halollik va ijobiylikning timsoli sifatida qabul qilinadi. Shu sababli, "Oq Daryo" atamasi nafaqat fizik xususiyat (ya'ni suvning oqar suv yoki loyqa tusdan xoli bo'lishi), balki ramziy-ma'naviy ma'no ham anglatadi.

Qara Daryo (Qora Daryo) (قرا دریا) Saripul viloyatiga ko'histonot va Sangchorak tumanlaridan boshlanib oqib kelib, Oq Daryo bilan birga Saripul shahrining ikki tomonlama

¹ Azimiy.Said. Sherak,Ungut,Tibir,Qarluq uruq qishlog'lari haqidagi ilmiy tahqiqiy maqolalaridan olindi.

Sharqi-g'arbiy yashil vodiylarni sug'oradi natijada qolgan suv Juzjon viloyati ya'ni Shibirg'on shahriga borib sarflanadi.

G'orbuloq:(غاربولاق) "G'orbuloq" qishlog'i Afg'onistonning Saripul viloyati, G'usfandi tumanidagi qishloqlardan biridir. Ushbu qishloq nomi ikki turkiy so'zdan: "G'ar" (buloq, chashma) va "Bo'loq" (buloq, chashma) kelib chiqqan bo'lib, umumiy ma'nosi "G'or buloq" yoki "Chashmali g'or" degan ma'noni anglatadi².

Tibir:(تبر) **Tabir, Tiber, Tibir, Tipir, Teper, Tepur, Tapir, Topar, Tabor, Tepor, Tupar, Tupor:** Bu atamalar bir ildizdan kelib chiqqan bo'lib, ularning hammasi tarixiy bir turk qabilasiga, ya'ni Qipchoq turklarining bir bo'lagiga tegishlidir. Tibir bu Saripul viloyatining Sangchorak tumanida joylashgan bir qishloq bo'lib, unda o'zbeklar istiqomat qiladi. Bu qishloq Sangchorak markazidan (yoki Tukzor) 10 km uzoqlikda joylashgan. Hudud havosi sof, yashil va go'zal tabiati bilan ajralib turadi. Manbalarda bu nom "Tibir" shaklida (ta va be harflari kasra bilan) keltirilgan, biroq ingliz tilida "Tibir" (ta va be fatha bilan) shaklida yozilgan. So'zning asl talaffuzi esa Tabir yoki Tibir tarzidadir. Afg'oniston qishloqlari atlasida "Tibir" nomi bilan quyidagi joylar qayd etilgan: biri Sangchorak tumanida joylashgan.

Afg'onistondan tashqaridagi o'xshash joy nomlari: O'zbekiston Respublikasida, Shahrisabz shahrida Tepir yoki Tipar nomli qishloq mavjud. Qashqadaryo viloyatida Tiparlik va Toshkent viloyatida Tipar nomli boshqa qishloqlar ham mavjud bo'lib, bu nomlar Tibir, Tepir shakllari bilan bog'liq. "Qishloqnoma Qashqadaryo" kitobida Tipar yoki Tupar so'zlari aslida o'zgartirilgan shakllar bo'lib, ularning ildizi qadimiy Qipchoq turk urug'iga borib taqalishi aytiladi³.

Qazoqi o'zbekiya:(قزاق اوزبېكيه) Qazoq qishlog'i Afg'onistonning Saripul viloyati, So'zmaqal'a tumanida joylashgan. Bu tuman Saripul viloyatining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, sharq tomondan Balx viloyati bilan chegaradosh. Qazoq qishlog'i aholisi orasida dariy, o'zbek va pushtu tillarida so'zlashuvchilar bor. Bu hududda qish juda sovuq, yoz esa juda issiq bo'ladi.

Arg'u:(ارغو) Arg'u qishlog'i Afg'onistonning shimoliy hududida joylashgan Saripul viloyatining tarkibiy bo'linmalaridan biri hisoblanadi. Mazkur viloyat o'zining 16,360 kvadrat kilometr maydoni bilan mamlakatning tog'li mintaqalaridan biri sanaladi. Arg'u qishlog'i, Saripul viloyatining ijtimoiy, madaniy tuzilmasida muayyan o'rin egallab, mahalliy aholi hayot tarzining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu hududning iqlimiy va geografik xususiyatlari, shuningdek, resurslardan foydalanish uslublari, qishloq xo'jaligi va chorvachilik faoliyatining asosiy omillaridan biri sifatida ilmiy tahlil etilishi mumkin. Bu qishoqda yashovchi aholisi o'zbek, turkmen, tojiklardir.

Burquti o'zbekiya:(بورقوت اوزبېكيه) Burqut qishlog'i Afg'onistonning Saripul viloyati, So'zmaqal'a tumanida joylashgan. Burqut so'zi turkiy tillardan kelib chiqqan. Turkiy tillarda, ayniqsa qadimgi turk va o'zbek tillarida "Burqut" yoki "Burğut" yirtqich burgut yoki yirik ovchi qush ma'nosini anglatadi. Bu so'z tarixiy manbalarda ham kuch va jasorat ramzi sifatida

² Intizor Diplom Ahmad Jovid. Davrnimoyi inkishofi Saripul.—Markit Haq Kobul:Matba'i payomi Mashriq,1390.h,42,43,44.b.

³ Azimiy.Said. Sherak,Ungut,Tibir,Qarluq uruq qishlog'lari haqidagi ilmiy tahqiqiy maqolalaridan olindi.

ishlatilgan. Turkiy xalqlarning madaniyatida burgut hokimiyat, mustaqillik va jangovar ruh timsoli sifatida qaraladi. Burqut qishlog'ining nomi ham shu ma'nodan olinganligi aniqlanadi.

Oqbiy: (آق بى) Saripul viloyatining Sangchorak tumanida joylashgan qishloq nomidir. (Men tahqiqotchi sifatida shuni aytib o'tamanki, bu joy nomi Teber qishlog'ining Shimol-Sharq tomonini bir qismi hisoblanib, aniq nomi (Oqbet) (آق بيت) dir. U yerda yashovchilari faqat o'zbeklardir).

Toshqoq: (تاشقاق) Toshqoq qishlog'i Saripul viloyati, So'zmaqal'a tumanida joylashgan.

Toshqoq turkiy ildizga ega. Turk, o'zbek tilida "tosh" (taş) "tosh" ma'nosini anglatadi, "qoq" yoki "qox" (qoq) esa yoriq yoki darz ketish degan ma'noga ega.

Ko'tarma: (كوترمه) Ko'tarma qishlog'i Afg'onistonning Saripul viloyati, Sayyod tumanidagi qishloqlardan biridir. Ushbu tuman Saripul viloyatining g'arbida joylashgan bo'lib, Juzjon va Foriyob viloyatlari bilan chegaradoshdir. Ko'tarma so'zi turk, o'zbek ildiziga ega bo'lgan. ko'tarish yoki baland qilish ma'nolarini anglatadi. Shuningdek, "ma" qo'shimchasi turkiy tillarda so'z yasashda keng qo'llaniladi.

Oltiboy: (آلتى باى) Saripul viloyatining Go'sfandi tumanida joylashgan bir qishloq nomidir. Bu qishloq Sangchorak tumanining markazi ya'ni Tukzor shahrini 9 kilometr Shimoli-Sharq masofasida joylashgan. Mazkur tuman o'tmish zamonlarda Mazorisharifga qarashli bo'lgan. Oltiboy qishlog'ining ayrim shaxslarning aytishicha o'tmishda oltita shaxs o'zlarini davrida eng boy shaxslardan hisoblanib, ular juda mashhur va taniqli shaxslar bo'lib o'tgan.

Shuning uchun bu toponimning ham kelib chiqishi shundan so'ng qolgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, toponimlar har bir til vakillari uchun muhim va ahamiyatlidir. Chunki ular hayotdagi belgi ularoq xalq o'rtasida ishlatiladi. Bu soha tilshunoslikning eng muhim va kerakli bo'lgan sohalaridan biri hisoblanadi. Toponimlar geografik hududiy joylashgan joy nomlarini qaysi turiga tegishli bo'lishini tasdiqlovchi soha bo'lib, Afg'onistonning Saripul hududlarida o'zbek tiliga ataluvchi toponimlarni o'rganishdir.

REFERENCES

1. Intizor Diplom Ahmad Jovid. Davrnimoyi inkishofi Saripul.—Markit Haq Kobul:Matba'i payomi Mashriq,1390.h,42,43,44.b.
2. Azimiy.Said. Sherak,Ungut,Tibir,Qarluq uruq qishlog'lari haqidagi ilmiy tahqiqiy maqolalaridan olindi.
3. Foriyobi Sardor Elmurod Arg'un.Nomhoyi turkiy dar jug'rofiyoyi torixiy Afg'oniston. — Mazorisharif:1396.2—23,38,.b.
4. Foriyobi Sardor Elmurod Arg'un.Nomhoyi turkiy dar jug'rofiyoyi torixiy Afg'oniston. — Mazorisharif:1396.134,235,236.b.